

Anbar Otinning pedagogik qarashlari

Maxbuba Abduraximova

m.abduraximova1994@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalqining mashhur ijodkor ayollaridan bo'lmish Anbar Otinnig falsafiy -pedagogik qarashlari, yoshlarning tarbiyasi va uning rivoji borasidagi pedagogik fikrlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: milliy ong, g'oya, didaktika, pedagogik qarash, badiiy-estetik tafakkur

Pedagogical views of Anbar Otin

Makhbuba Abdurakhimova

m.abdurakhimova1994@gmail.com

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after
Alisher Navoi

Abstract: In this article, the philosophical and pedagogical views of Anbar Otinnig, one of the famous creative women of the Uzbek people, pedagogical thoughts on the education of young people and their development are highlighted.

Keywords: national consciousness, idea, didactics, pedagogical vision, artistic-aesthetic thinking

O'zbek adabiyoti tarixidan ma'lumki, o'tmishda ijod qilgan har qaysi ijodkor ajdodlarimiz o'z asarlari orqali nafaqat badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish, shu bilan birga didaktik maqsadni ham oldilariga qo'yishgan. Ya'ni asarlari orqali yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularning kelgusida komil inson bo'lib yetishishlari uchun o'z xissalarini qo'shganlar. Ana shunday buyuk iqtidor egalaridan biri, shubhasiz, Anbar Otin edi. Uning asarlarida boshqalardan farqli o'laroq romantik kayfiyat, ishq tarannumidan ko'ra ko'proq milliy ongni uyg'otish, jamiyatni taraqqiyotga undash, o'z xalqini boshqa xalqlar bilan solishtirgan holda ilg'or davlatlarga tenglashishga davat g'oyalari ilgari surilgan. U hayotda ro'y berayotgan har bir voqeaga tiyrak nigoh bilan qaraydi, kuzatishlari natijasida paydo bo'lgan o'z qarashlarini nazmiy yo'l bilan ifoda etadi:

Ey bolam, Xayrulloxon maktab ochibdur boringiz,
Albatta, shu yangi maktabda o'qungiz, boringiz.

Yerda o`lturmay xarrakda o`ltururmish bolalar,
Toza turgay ust-boshu jomai dastoringiz.
O`rgatarmish turk tilida har ilmdan borini,
Kelgusida shu bilimlar birla bo`lg`ay koringiz.

Shoiraning yuqoridagi she`ri orqali millat bolalarini ilm olishga, maktab tahsiliga chorloviga guvoh bo`lamiz. U ta`lim sohasida bo`layotgan o`zgarishlar, rivojlanishlardan to`lqinlanib yozadi, endi o`quvchilar yerda emas, xarraklarda, toza, ozoda xonalarda ta`lim olishlari uni behad quvontiradi va bolalarni ilm olishlikka da`vat qiladi. Shoiraning «Yakka bayt»lari asosan didaktik xarakterdadir. Ammo ularda ijtimoiy-siyosiy qarashlar ham mavjud. Shoiraning bu turkumdagi she`rlari bugungi kunda ham o`z qimmatini yo`qotgan emas va kelajakda yo`qotmaydi ham. Har bir o`quvchi quyidagi baytlarni o`qib, bu fikrning to`g`riligiga iqror bo`ladi:

So`zlamasdin oldin so`zingni sina.
Har bir so`zdur umring ichinda zina.
Mashaqqatsiz hunardan chiqmaydi dur,
Hayonsiz ilm durdin ko`b erur dur.
Kimki ma`rifatni etsa e`zoz,
Ani irfon etar albatta mumtoz.

Ayniqsa, shoira qalamiga mansub “Qarolar falsafasi” asari Anbar Otinnig dunyoqarashi, tasavvuri haqida boy ma`lumotlar beradi. Uning tarix, falsafa, axloq va madaniyatimiz tarixining bilimdoni ekani ma`lum bo`ladi. Asarning “Avvalg`i fasl” idan parcha:

“Qarolar bordurlarki, alar o`zlari qaro bo`lg`onlari holda ma`rifat nuri siyratlarida to`ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg`a oq shu`la socharlar. Misol uldurki, qaro charog` o`zi qaro yog` va kuyundig`a giriftor bo`lg`oni holda nuri ilan kulbani ravshan qilur.” Ya`ni, shoira bu bitiklari zamirida inson tanasidagi ranglarning mutlaqo ijtimoiy ahamiyat kasb etmasligi, uning qayerda yashashi va qaysi tilda gapirishi emas, balki olam va odamga munosabatiga ko`ra farqli jihatlari bo`lishi mumkinligi yotadi. U insonning insonligi o`zidan so`ng boshqalarga qoldiradigan ilmida, ma`rifatida deb biladi.

Bundan tashqari Anbar otin farzand tarbiyasi, uning yetuk inson bo`lib kamol topishida onaning o`rni beqiyos ekaniga alohida urg`u beradi. U onaning insoniyat oldidagi xizmatlarini sanar ekan: „Ona shunday mohir donodurki, Aflotun va Arastuni, Abu Ali ibn Sino va Ulug`bekni, Jomiyni, Sa`diyini, Firdavsiyni va Hayyomni, Nodira va Uvaysiyni... olamni ko`rishga davru mohir qilibdur“. Anbar otin ozod va baxtli hayot kechirish uchun, elda ma`rifat keng yoyilishi, kishilarning saviyasi o`sishi uchun aynan ayollarning ilmi bo`lishiga, o`z haq-huquqini yaxshi tanishiga chaqiradi. Xulosa qilib aytishimiz kerakki, mumtoz shoiramiz Anbar Otin nafaqat badiiy adabiyotimizga, balki pedagogikamizga ham o`zining salmoqli

xissasini qo'sha bilgan, o'sha davrlarda el orasida ma'rifatparvarlikning rivojiga ta'sir ko'rsatgan va biz bo'lajak pedagoglar o'z ilmiy va amaliy faoliyatimizda bu qarashlarni dasturulamal qilib, qo'llay bilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avaz O'tar o'g'li. «Devon». T, 1976 yil.
2. Y.Yusupov «Avaz». T, 1954 yil.
3. Y.Yusupov «Xorazm shoirlari». T, 1967 yil.
4. V.Mirzayev «Avaz O'tar o'g'li. Hayoti va ijodi». T, 1961 yil.
5. «Avaz». Saylanma. T, 1984 yil.
6. «Ayyomiy». Saylanma. T, 1984 yil.
7. Suyunov Miraziz. (2023). ANBAR OTINNING PEDAGOGIK QARASHLARI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(2), 76–78.